



O'SMIRLARDA KASB TANLASHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Umurzaqova Nodira Mamurjonovna
*O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya
(faoliyat turlari bo'yicha) 2 kurs magistri*

Annotatsiya. *Dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shib borayotgan O'zbekiston o'zining mustaqil yo'lidan borar ekan, bu sohada olib borayotgan amaliy va nazariy ishlarini jamiyat hayotiga tadbiq etib ko'plab yutuqlarga ega bo'lib bormoqda. Shunday muhim masalalardan biri bu kadrlar masalasi, ya'ni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, raqobatbardosh, bilimli va ijodiy yondosha oladigan kadrlarni yaratish hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Kasb tanlash jarayoni, kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini*

Kirish. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev shunday yozadi “ Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonotni boy berib qo'yishimiz xech gap emas”²².

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirishi zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish darkor. Aks holda umumiy xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto eng oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib tub maqsadga erishib bo'lmaydi.

O'quvchi o'zini-o'zi real baholashi va ijtimoiy talablarni istiqbolli baholashga psixologik jihatdan tayyormi? O'quvchining bu kabi baholashga tayyorgarligining ravshan mezoni kasb tanlashga oid so'rovnomaga bo'lishi mumkin. Psixolog va sotsiologlarning ko'p sonli ma'lumotlariga ko'ra o'quvchilarning katta qismi maktabni tugatish davriga kelib ma'lum kasbiy maqsadlarga ega bo'lmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri o'quvchilar kasblar olamini yaxshi bilmasligidir. 9- sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchi o'rtacha 20-30ta kasb borligini ayta olgan. Hozirgi kunda 40 mingdan ziyod kasb borligini hisobga olsak, bu kasblar haqida bilim darajasini past ekanligini oydinlashtiradi.

²² Mirziyoev Sh.M. “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik”. “Xalq so'zi”, 2017 yil 16 iyun.



7-8 sinfdan boshlab kasb tanlash va unga tayyorgarlik dolzarb bo'lgach o'quvchilar bo'lajak kasbi haqida jiddiy o'ylay boshlaydi o'zining psixologik "zahiralarning" baholashga urinadi. Maktab o'quv fanlarini yangidan, avvalo bo'lajak kasbi uchun zarurligi nuqtai nazardan baholashni boshlaydi. Bu holda kattalarning asosiy vazifasi o'quvchiga o'zini bilishda o'z imkoniyatlari xulq motivlarini individual psixofiziologik imkoniyatlarini tushunishda yordamlashishi va bu bilimlardan kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonida faol foydalanishdan iborat.

Bu ishning pirovard maqsadi – o'quvchini mustaqil o'ylab ongli ravishda kasb tanlashga yetaklash va maktab sharoitida imkoni boricha kasbga dastlabki psixologik tayyorgarlikni ta'minlashdir.

Prof.E.G'.G'oziev "Kasb psixologiyasi" kitobida kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillarni quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatadi:

-ta'lim tarbiya tizimida kasbga yo'llash faoliyatining mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi;

-o'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi;

-sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi;

- kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki;

- sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratib ko'rsatilishi;

- maktablarda, ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi;

- maxsus muassasalar faoliyati;

- kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi;

- ijodkor nufuzli mahoratli kishilar bilan uchirashuvlar o'tkazilishi;

- kasb tanlashda mahalliy matbuot radio va televideniyaning ishtiroki.²³

Ta'lim-tarbiya tizimida kasbga yo'llash faoliyatining mazmuni maktab (qaysi turdaliqidan qat'iy nazar) ma'muriyati, sinf rahbarlari, amaliy psixolog va kasbga yo'llovchi fan o'qituvchilarining ish rejasida mazkur masala joy olganligi. Shuningdek, bu muammoga taalluqli ishlar, tadbirlar izchil amalga oshirilib turilishi. Ularning ta'sirchanligiga e'tiborning ortishi tufayli o'quvchi yoshlar orasida bu sohada tasavvur ko'lamining kengayishi. Rasmiyatchilikdan chekinib, umumiy va zaruriy masala sifatida qabul qilinishi uning qiymatini ko'taradi.

O'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati ayniqsa alohida olingan fan o'qituvchilari va turdosh fanlarning namoyondalari jamlanmasi hamkorlik ish rejasida kasbga yo'llash masalasining izchil ravishda qo'yilishi, har bir mavzu bo'yicha mulohaza almashishda, qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar ixtisosga oid bilimlarga e'tibor berilishi kasbiy tasavvurni vujudga keltiradi.

²³E.G'.G'oziev "Kasb psixologiyasi", Toshkent 2003 y. 46 - 48 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Kasb-hunar mohiyati bilan tanishish unga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, mustaqil bilim olishga ishtiyoq paydo bo'ladi va odat maromiga aylana boradi. Maxsus tadbirlar o'tkazilishi, kasb nufuzi bilan tanishtirilishi kasbiy motivlar va motivatsiyalarni takomillashtiradi, moyillik tuyg'usini uyg'otadi.

O'smirlarning kasb tanlashida sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligi ham muxim rol o'ynaydi. Sinf rahbari ota-onalar bilan individual va guruhlik hamkorlikni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qilsa, ya'ni o'quv fanining kasb tanlash bilan bog'liqligi, kasbning nufuzi, kasb tanlashning psixologik asoslari, kasbga nisbatan qiziqish, havas, qobiliyat, iste'dod kasbga yo'llashning asosiy maqsadi va vazifalari, kasbning ijtimoiy ahamiyati, o'quvchilar individual xususiyatlari, kasb tanlashning ilmiy manbalari va h.k. yuqori ko'rsatkichga erishish mumkin.

Kasbga yo'llash umumdavlat ahamiyatga ega muammo hisoblanib, uni boqichma-bosqich amalga oshirish "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"da alohida o'rin egallaydi. Yuqorida kasb tanlashga yo'llash omillari faoliyatini hamkorlikka aylantirish yuksak samaralar sari yetaklaydi.

Psixolog K.K.Platonov²⁴ "Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagi" sxemasini ishlab chiqib u o'zining ixchamligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Xuddi shu bois kasb tanlashga yo'llashda undan unumli foydalanish mumkin. Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagining muhim tomoni bu har xil kasb egasiga qo'yiladigan talablar yuzasidan muayyan talabning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatli tomoni shuki u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyatning mehnat imkoniyatiga ehtiyoji bo'yicha bilimlar mujassamlashtirilganligidir. Yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki kasbga yo'naltiruvchining qunti, qobiliyati shaxsiy xususiyatlari bo'yicha bilimlar umumlashtirilgan bo'lib kasb tanlashga oid barcha jihatlar majmua xoliga keltirilgandir.

Kasb tanlashga yo'naltirilgan uchburchagi shaxsning qiziqishi mayli xoxishi o'zini o'zi baholashi nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

V.A.Kruteskiy²⁵ o'spirinlarda uchirashi mumkin bo'lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;
- vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatish;
- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;
- ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;

²⁴ S.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Kasb psixologiyasi.O'quv qo'llanma. T.2010 y. 57.

²⁵ V.Karimova.V Kasbiy psixologiya. T., 2013 y. 17 b.



- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir.

Psixolog Ye.A.Klimov tomonidan o'spirinlarda kasb tanlash jarayonida uchiraydigan xatoliklarni quyidagilar deb ko'rsatadi:²⁶

- biror bir kasbning nufuzli ekanligiga bahs borishdagi dogmalarga asoslanish;
- kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish;
- biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lio'ni tegishli kasbga ko'chirish;
- kasbning kundalik tomonini nazar pispnd qilmasdan uning tashqi tomoniga sirtiga mahliyo bo'lish;
- o'rtoqlarining ta'siri ostida kompaniya uchun kasb tanlash va boshqalar.

Kasb tanlash o'quvchida ikki turdagi axborotning mavjud bo'lishini talab qiladi. Bular:

1.Umuman kasb dunyosi haqida va ulardan har birining talab imkoniyatlari to'g'risida.

2.O'z haqida o'zining qobiliyatlari va qiziqishlvri haqida.

O'smirlar psixologiyasida baholash va o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini anglash muammolari bilan bevosita shug'ullanadigan psixologlar ishlariga murojaat etish muximdir. O'z-o'zini anglashning roli – katta o'quvchi shaxsining xarakterli xususiyati o'smirlikning o'spirinlikdan o'z “Men”iga qiziqishning ortishi hisobiga farqlaydi. Bu sharoitni hisobga olish o'quvchilar kasbiy tiklanishini tashkil etishda nihoyatda muxim zero kasbni ongli va ishonch bilan tanlay olish bu yoshda nisbatan barqaror “Men” kabi psixologik sifatning yani o'zi haqida yaxlit tasavvurning shakllanishi bilan uzviy bog'liq. “Men” obrazi (ba'zan”Men” tushunchasi”Men” konsepsiyasi deb ham yuritiladi) murakkab psixologik hodisa u shunchaki o'z sifatlarini anglash yoki o'z-o'zini baholash yig'indisi emas. “Men kimman?” degan savol o'zini tavsiflash emas, ko'proq o'z-o'zini belgilashni ko'zda tutadi: “Men kim bo'lishim kerak?” va “kim bo'lishim kerak imkoniyatlarim, istiqbollarim qanday, men hayotda nimalar qila oldim va yana qila olaman?”.

O'quvchilar kasbiy tiklashsh xususiyatlarini baholashda “Men” obrazining har bir komponenti xolati uch yo'nalishda o'z-o'zini tahlil qilish, kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy sinovlarda baholanadi.

“Men” obrazining kognitiv komponenti shaxsiy, psixologik komponentlik darajasi, psixologik bililardan atrofdagi voqealarni anglash o'z hulqi, individual - psixologik xususiyatlari bilan belgilanishi mumkin. Komponent to'liqligi, adekvatligi insonning mehnat va kasblar dunyosi haqidagi bilimlari bilan ham belgilanadi.

²⁶Ye.A.Климов “Как выбрать профессию”. Москва 1991 .38.



Kognitiv komponent rivojlanganligi ko'rsatkichi bo'lib kasbiy sinovlarning tayyorlov bosqichini muvaffaqiyatli egallash ham xizmat qiladi.

“Men” obrazining emotsional baholash komponenti o'quvchining o'z uchun xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni baholay olishda tanlangan kasbni o'zi uchun namoyon bo'ladi. Bu komponent kasbiy sinov mazmuni va murakkabligi darajasini tanlash kasbiy faoliyatning aniq sinov doirasida turli sohalariga munosabatda namoyon bo'ladi.

“Men” obrazining hulq-atvor komponenti shaxsning o'z-o'ini tarbiyalash va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish dasturida uning murakkablik darajasi yo'nalganligi tanlangan kasb talablariga nisbatlanganda namoyon bo'ladi. U shaxsiy kasbiy shakllanishini shuningdek o'quvchining kasbiy sinovlar jarayonida kasbiy faoliyat turlarida o'zining realizatsiyalay olishini belgilaydi va unda tegishlisini aks ettiradi.

I.S.Konning aytishicha “O'smirlarda o'z-o'zini anglash va o'z “Men”ga qiziqish o'zining psixologiyada biogenetik maktab vakillari ta'kidlaganidek faqat jinsiy yetilish bilan bog'liq emas. Bola o'sadi o'zgaradi kuch yig'adi va shunga qaramay bu unda interospeksiyaga tortishni keltirib chiqaradi. Bu o'spirinlik yoshida ro'y bersa endi avvalo shundaki, jismoniy yetilish ayni paytda ijtimoiy simptom ulg'ayishi alomati sanaladiki, unga e'tibor berishadi, uni boshqalar kattalar va tengdoshlari kuzatishadi. O'smirlik holati ziddiyatlilik, uning ijtimoiy rollari, intilishlar darajasining o'zgarishi aynan shular birinchi galda “Men kimman?” degan savolni dolzarblashtiradi”²⁷.

Bu davrda tashqi boshqaruvdan o'z-o'zini boshqarishga o'tiladi. Biroq qanday boshqaruv ob'ekt haqida axborot mavjudligini ko'zda tutadi. Shundan o'z-o'zini boshqarishda sub'ektning o'zi haqidagi axborot ya'ni o'z-o'zini anglash bo'lishi shart.

Hozirgi kunda kasblar haqidagi yangi tasavvur ishlab chiqilmoqda. U yaxlit faol o'z faoliyatini loyihalashda amalga oshirish va ijodiy o'zgarishda erkin va ma'suliyatli sub'ekt hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, kasbiy o'zlikni anglash jarayonida shaxsning o'z-o'zini baholash shaxs xususiyatlari muhim aspekt sifatida ko'rsatib o'tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoev Sh.M. “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik”. “Xalq so'zi”, 2017 yil 16 iyun.
- 2.S.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Kasb psixologiyasi.O'quv qo'llanma. T.2010 y.
- 3.Ye.A.Климов “Как vybrat профессию”. Москва 1991 .38.
- 4.Klimov Ye.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. Rostov N/D 1996 g.
- 5.V.Karimova.V Kasbiy psixologiya. T., 2013 y. 17 b.
- 6.E.G'.G'oziev “Kasb psixologiyasi”, Toshkent 2003 y. 46 - 48 b.

²⁷ S.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Kasb psixologiyasi.O'quv qo'llanma. T.2010 y.